



**O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” ASARINING BADIY-FALSAFIY
XUSUSIYATLARI**

Pardayeva Ashirgul Botirovna

Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Biz bu dunyoda yashar ekanmiz avvalo bir narsani anglab olishimiz zarur. Bizdan yemay yedirgan,kiymay kiydirgan,yo‘qdan bor qilgan,issiqni issiq,sovuqni sovuq demasdan bizga shunday imkoniyatlarni yaratib qo‘ygan,eng muhimi esa yo‘qdan bor qilib shu darajagacha kelishimizga sababchi bo‘lgan va bizni kelajagimiz uchun o‘zlarini o‘zliklaridan kechgan, bularning barchasini zamirida bizning ota-onamiz bordir. Ushbu maqolada taniqli yozuvchi O‘tkir Hoshimovning qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" asari haqida fikr yuritiladi. Bu asarni xuddi onalar haqida deb ayta olamiz. Chunki adib bu asarda butun dunyo onalari haqida aytib o‘tadi,bu asarni o‘qir ekansiz,asardagi voqealar xuddi sizning hayotingizda sodir bo‘layotgandek tuyuladi,aslida ham shunday. Bu asarni o‘qir ekansiz shunday jumlagga ko‘ziz tushadi "Butub dunyo onalari bu asarni o‘qishini xohlardim" deb yoziladi.

Kalit so‘zlar: ona, Alla, bolalik, paypoq, ko‘ylak, do‘st, qarz, xotira, oddiy aholi, sovet davri.

THE ARTISTIC AND PHILOSOPHICAL FEATURES OF O‘TKIR HOSHIMOV’S WORK

“THE AFFAIRS OF THE WORLD”

Pardayeva Ashirgul Botirovna

First-year student,

Termez State Pedagogical Institute

ABSTRACT

As we live in this world, we must first understand one important truth. Behind everything we have achieved stand our parents — those who fed us without eating themselves, clothed us without thinking of their own needs, created opportunities for us out of nothing, endured heat and cold without complaint, and sacrificed their own comfort for our future. Most importantly, they devoted their lives to raising us and helping us become who we are today.

This article discusses the work “*The Affairs of the World*” by the well-known writer O‘tkir Hoshimov. It can be said that this work is dedicated to mothers. In this book, the author speaks about mothers all over the world. While reading it, the events described seem as if they are happening in your own life — and in fact, they truly reflect real life. One of the most touching lines in the work expresses the author’s wish that all mothers of the world could read this book.

Keywords: mother, lullaby, childhood, socks, dress, friend, debt, memory, ordinary people, Soviet period.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ОТКИРА

ХОШИМОВА «ДЕЛА МИРА»

Пардаева Аширгул Ботировна

Студентка 1 курса

Термезский государственный педагогический институт

АННОТАЦИЯ

Живя в этом мире, мы прежде всего должны осознать одну важную истину. За всеми нашими достижениями стоят наши родители — те, кто кормил нас, не доедая сам, одевал нас, не думая о собственных нуждах, создавал возможности из ничего, переносил жару и холод, не жалуясь, и жертвовал своим благополучием ради нашего будущего. Самое главное — именно они посвятили свою жизнь тому, чтобы вырастить нас и помочь нам стать теми, кем мы являемся сегодня.



В данной статье рассматривается произведение известного писателя Откира Хошимова «Дела мира». Можно сказать, что это произведение посвящено матерям. В книге автор говорит о матерях всего мира. Читая её, создаётся ощущение, будто описываемые события происходят в вашей собственной жизни — и действительно, они отражают реальность. В произведении есть трогательная мысль о том, что автор хотел бы, чтобы все матери мира прочитали эту книгу.

Ключевые слова: мать, колыбельная, детство, носки, платье, друг, долг, память, простой народ, советский период.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov Toshkentning Do‘mbirobod dahasida 1941-yilning 5-avgustida tavallud topgan bo‘lib, bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. Shu tufayli u o‘rta maktabni a‘lo baholar bilan bitirgan bo‘lsa ham oilaviy sharoiti yuzasidan ishlab turib o‘qishga majbur bo‘lgan. Noyob iste’dod sohibi O‘tkir Hoshimov adabiyotga Abdulla Oripov, Omon Muhtorov, Shukur Holmirzaev singari bir qator tengdoshlari bilan birga kirib keldi. O‘sha paytda adabiyotimizning Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Kahhor, Maksud Shayhzoda singari ulkan yozuvchilari hayot bo‘lib, ularning nazariga tushish hammaga ham nasib qilavermasdi. O‘tkir Hoshimov esa Abdulla Kahhordek mashhur san’atkor e’tiborini jalb qilgan yoshlardan edi. Adib faoliyati davomida juda ko‘plab asar, qissa, ocherklar yozishga ulgurdi. Uning asarlarida inson hayoti, fojeali voqealar, bolalik chog‘lari hamds oddiy aholing hayoti yoritilgan. Shunday asarlaridan biri bu “Dunyoning ishlari” asaridir. Bu asar ona haqidagi, ona qalbining cheksiz sahovati to‘g‘risidagi o‘ziga xos qasidadir. Asardagi Ona - farzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor. U ming-minglab o‘zbek onalarining timsoliga aylandi. Har bir o‘zbek kitobxonida o‘z onasining qandaydir fazilatini topgandek bo‘ladi. Qissadagi "Alla", "Oq marmar, qora marmar" kabi novellalarda onaning farzandi qalbida qoldirgan armonlari haqida yozilgan. Kishi bularni o‘qir ekan, ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketadi.

O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asarini yozishiga asosiy sabab, onalar mehnatini, fidoyiligini va ularning qadr-qimmatini ulug‘lash, ularga bo‘lgan cheksiz muhabbatini ifodalash, shuningdek, Sovet davridagi oddiy qishloq hayotini o‘z bolalik xotiralari orqali yorqin tasvirlash bo‘lgan. Asar, ayniqsa, onaga bo‘lgan qarzdorlik hissini uyg‘otib, insoniyatni insofga, insoniylikka va o‘z yaqinlarini qadrlashga undaydi. Ushbu asarda 3 ta asosiy g‘oya ustun turadi. Bular:

Ona obrazi: Asar, birinchi navbatda, fidoyi onalarga bag‘ishlangan. Yozuvchi o‘z onasining hayotini, chekkan mashaqqatlarini umumlashtirib, barcha onalarning hayotini qissa orqali ko‘rsatib bergan.

Bolalik xotiralari: Asarning asosini adibning bolalik davridagi voqealari tashkil etadi. Sovet davri qishloq hayoti, oddiy oilalar turmushi, yozuvchining onasi bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlangan.

Insoniy qadriyatlar: Asar orqali yozuvchi insonlarni insofli, insonparvar bo‘lishga, o‘z yaqinlarining qadriga yetishga chaqiradi. Asar o‘zbek xalqining qalbida onalar haqida chuqur o‘y-hayollarni uyg‘otib, ularga bo‘lgan mehr-muhabbatni kuchaytiradi.

“Dunyodagi eng bebaho, ammo hamisha benazir tarqatiladigan xazina bor. Bu-ona mehri!”, - deb yozadi O‘tkir Hoshimov. Adib onalar mehrini shunday ta’sirli jumlar orqali ta’riflaydi. Ushbu asar asosan onalar balki o‘z onalarimiz haqida bo‘lib, unda onaning qanday buyuk zot ekanligi, mehribonligi, faqat bolam-bolam deb tinmay farzandini qayg‘urishi haqida juda chiroyli jumlar keltirilgan. O‘z hayoti davomida qancha qiyinchiliklarni, og‘ir kunlarni boshidan o‘tkazgan bo‘lishiga qaramay biror marta ham nolimagan, noshukrlik qilmagan, har bir inson bolasiga begona bo‘lsa ham mehr ulashgan, har bir mashaqqatga sabr qilgan, mehri daryo, qalbi keng onalarimiz haqidadir ushbu asar. Adib asarda onalarimizni shunday ta’riflaydiki ko‘zga yosh olmasdan iloji yo‘q.



Adib asar davomida shunday deydi: “ Onalarimizning biz tushunmaydigan, bizning o‘lchovimizga sig‘maydigan o‘z olamlari bor”,- deb ta‘kidlaydi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday tariflagan: „Dunyoning ishlari“ asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi. Jonli va hayotiy tasvirlar, o‘zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o‘rtasidagi suhbatlar mutolaa ta‘sirini kuchaytiradi. Shuningdek, shu davrning voqealigi keng bayon qilingan. Asar adibning bolalik davridagi voqealari asosida qurilgan. Sovet davridagi oddiy qishloq oilalari, odamlar turmush tarzi adibning onasi bilan uyg‘unlashtirib tasvirlangan. O‘tkir Hoshimov shu kichik asarida ham dunyoning ishlarini mujassamlashtirilgan.

Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag‘ishlanadi, aziz Onajonlar! Bu jumllarni o‘qir ekansiz asarda adibning o‘z boshidan kechirgan voqealari ekanligi va ismlari o‘zgarganligiga amin bo‘lasiz. Asar boshida "Oq, oydin kechalar" hikoyasi berilgan va bu hikoyada ona va bola tunda osmonga qarab yotishganda oddiy yulduz orqali onani farzandi uchun kattaroq yulduz senga, menga mittisi ham bo‘laveradi degan gapi taqsiqga sazovor. Chunki ona yeb turgan ovqatini ham bolasidan ayamaydi. U kichkina yulduz yetimlarga o‘xshaydi, yetimlarga rahm qilish kerak deb qo‘yadi oddiygina qilib. Menimcha hammamiz osmonda yulduz uchsa niyat qilamiz, lekin asarda yana bir insonni joni uzildi... deyiladi e‘tibor bersangiz. Asardagi “Tush” hikoyasi ham onamizni yanada qadrlashimiz kerakligini uqtiradi. Negaki, onamiz bizga biron bir yumush buyursa erinamiz, uni bajargimiz kelmaydi va darrov uff deymiz. Ba‘zida hayot tashvishlari bilan band bo‘lib bir marta bo‘lsa ham xabar olishga vaqt ajrata olmaymiz. Asarda yozuvchi ham 2 kun ishdan kech keladi har kuni onasi uni uxlamasdan kutib turadi. Shunda onasiga jahl qilib “Nega uxlamadingiz?“, - deydi, shunda onasi “Uyqu qayerda bolam”- deydi. Oradan ancha vaqt o‘tib ona olamdan o‘tadi, afsuski farzand bu safar ishdan kelganda uni hech kim kutib olmaydi, barcha chiroqlar o‘chiq holda bo‘ladi. Shundan u onasini qadriga yetish kerakligini tushunib yetadi. “Tasalli” hikoyasida, onasini so‘nggi manzilga kuzatgan farzand kechinmalari yozilgan. Onasini qabrga qo‘yguncha jala tinmagan, qabrga qo‘ygandan so‘ng quyosh charaqlab ketgan shu hodisadan ham bir ma‘no, bir yupanch izlagan farzand dunyoda yaxshi insonlar ko‘pligini, shu insonlar ichida onasi ham borligini, bunga tabiat ham amin ekanligini tushunadi. Nami qurib ulgurmagan tuproq uyumiga tikilganicha o‘yga to‘ladi.

Bo‘ldi endi, bolam! Bunaqada o‘zingizni oldirib qo‘yasiz”, dunyoning ishlari shu ekan”, iloj qancha?

“Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo‘lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo‘lmas ekan. Ona-ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas”.

“Dunyoning ishlari" qissasining asosiy qahramonlari yozuvchining o‘zi bolalikdagi obrazi va uning jafokash, mehribon onasi bo‘lib, bu asar asosan Sovet davridagi oddiy qishloq hayotini, insoniy qadriyatlarini, ayniqsa ona mehrini, unga bo‘lgan qarzdorlik hissini, adolat va insonparvarlikni ulug‘laydi, shu bilan birga, hayotning murakkab ishlari-yu, odamlarning turmush tarzi tasvirlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu asarni barcha o‘qimasdan iloj yo‘q. Ushbu asar orqali holi onalarimiz oldidagi qarzlarning, qilishimiz kerak bo‘lgan ishlarimiz ko‘p ekanligini tushunib yetamiz. Onalarimiz haqiqatda biz uchun haqiqiy qahramondir. Negaki, hayot qiyinchiliklariga bardoshli, o‘z joni og‘risada buni atrofdagilarga, ayniqsa farzandiga bildirmay ichiga yutadigan, hamda faqat farzandim deb yashaydigan mehribon inson ekanligini bilishimiz mumkin. Asardagi barcha voqealar insonga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://tafakkur.net/otkir-hoshimov.haqida>
2. Manba: Akademiklar <https://share.google/963OVKB8jmYbxQHoJ>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Said_Ahmad
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tkir-hoshimovning-dunyoning-ishlari-asarining-badiiy-falsafiy-xususiyatlari-hamda-iltijo-hikoyasi-haqida>
5. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12606_1_B4AEFA2865B616F385620F99F440506BC28C1845.pdf